

GUMANITAR INQIROZLARNING IJTIMOYIY OQIBATLARINI BARTARAF ETISH USULLARI (O‘zbekiston misolida)



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-314-316>

Boboyeva Mohim SHukurovna

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi dotsenti

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

mohimboboyeva@gmail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy inqirozlar sharoitida xalqlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar. Ularning davlatlar va jamiyatlar ijtimoiy hayoti hamda rivojiga ta’sirlari xususida mulohazalar keltirib o‘tilgan. Ijtimoiy davlatning o‘ziga xos belgilari. Ijtimoiy davlatlarning hukumat va xalqaro hamkorlik doirasidagi o‘zaro munosabatlari, ijtimoiylashuv masalalarining ijtimoiy davlat tashkil etilishidagi o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlari hamda ularning ijtimoiy muhofazasi xususida O‘zbekiston tajribasi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar : ijtimoiy davlat, tolerantlik, ijtimoiy tamoyilar, ijtimoiy munosabatlar, mehr shavqat, ijtimoiy zaiflik, ijtimoiy zaif qatlam.

O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo‘lini tanlagan va amalga oshirilayotgan qayta qurishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatning eng muhim xarakterli jihati shundan iboratki, bunda kishilar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muvozanating ta’minlangan bo‘lishligi, olib borilayotgan islohatlar, katta-yu kichik tadbirlar, belgilangan vazifalarning amalga oshirilishida fuqarolarning ishtimoiy fikrlari, qarashlari, manfaatlari eng birinchi o‘ringa ko‘tarilishida nomoyon bo‘ladi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada ham O‘zbekiston respublikasining ijtimoiy davlat deb atalishi ham ushbu sohaga berilayotgan davlat va hukumat etiborining natijasi hisoblanadi.

Ijtimoiy davlatning asosiy belgilaridan biri unda inson va uning manfaatlari, shaxsi, erkinligi oliy qadriyat darajasida ezozlanishida ko‘rishimiz mumkin. Ijtimoiy davlat sifatida aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini birinchi navbatda qo‘llab quvvatlash va himoyalash eng oliy maqsad hisoblanadi. Ijtimoiy zaif qatlam sifatida esa bolalar, yoshlar, ayollar, qariyalar, nogironlar, ijtimoiy muhtoj oilalar, ko‘p bolali oilalar, ishsizlar va boshqalarni kiritiladi.

Ijtimoiy davlatda asosiy mexanizm ijtimoiy yordam tizimi hisoblanadi. Ijtimoiy yordam tizimi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, ijtimoiy yoki shaxsiy muammolar tufayli og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan odamlarni qo‘llab-quvvatlashda xayriya yordamidan, ijtimoiy ish kabi kasbiy yordamning paydo bo‘lishiga, nafaqat fuqarolarning ijtimoiy xavfsizligi uchun zarur shart sharoitlarni yaratishga qaratilgan, shuningdek, o‘z hayotlarini qurish qobiliyatlari hamda

qobiliyatlarini rivojlantirish, hayotiy inqirozlarni yengishda ichki manbalarni safarbar qilish. Ijtimoiy ishlarni kasbiy faoliyat turi sifatida shakllantirish jarayoni XX asr boshlarida boshlangan. G'arbiy Evropa va AQSh mamlakatlarida. Ukrainada, boshqa slavyan davlatlarida bo'lgani kabi, yetim bolalarga, nogironlarga, kambag'allarga, harbiy xizmatchilarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam Kievan Rus davrida rivojlangan va Kiyev knyazlari va xristian cherkovi faoliyatida o'z aksini topgan.

Aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini ijtimoiy qo'llab quvvatlash davlatning ijtimoiy siyosatining asosini tashkil qiladi. Bu sohaga etibor davlatimiz taraqqiyotining ajralmas bo'lagi bo'lib kelgan. Har bir mentalitetga ya'ni xarakteriga ta'rif berilganda unga xos bo'lgan o'ziga xos jihatlar ko'rsatilib o'tiladi. O'zbek millatiga xos bo'lgan o'ziga xos jihatlardan biri bu mehribonlik, boshqalar taqdiriga befarq bo'lmaslik, o'zaro mehr – muruvvat, shavqat, hamjihatliklarni ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy krizislar bu jamiyatning ma'lum bir rivojlanish boqqichida yuzaga kelgan o'zgarish, harakat va rivojlanishlarni tushunish mumkin. Bularga misol tariqasida: o'tish davrlarini, mustaqillikka erishish, ochlik, qashshoqlik, urush, ishsizlik, inflyatsiya va boshqalarni sohalari bo'yicha keltirishimiz mumkin. Inqiroz tushunchasini ko'pchilik adabiyotlarda turli shakllarda qo'llaniladi. Shunga muvofiq undan kelib chiquvchi ma'no mazmun ham o'ziga xos tarzda turlicha nomoyon bo'ladi. Ammo uni umumiy xolis baholaydigan bo'lsak krizislar hayot sur'atlarining o'zgarishiga, voqea jarayonlarga munosabatlarning o'sishiga, jamiyatning rivojlanishiga turtki bo'ladigan misollarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, ikkinchi jahon urushi bu davlatlar o'rtaidagi ijtimoiy krizisning bir namunasi. Urushning sabalari qanchalik g'ayritabiiy bo'lsa, uning keltirib chiqargan oqibatlari, yo'qotishlari shunchalik ayanchli hisoblanadi. Ammo shu bilan birga bevosita shu urush natijasida kelib chiqqan ayrim, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy sohadagi muammolar shu tarmoqlarda yangi munosabatlarning, o'ziga xosliklarning, tarmoqlarning shakllanishi uchun asos vazifasini bajarganini ko'ramiz. Masalan, Yangi davlatlar tashkil topdi, ayrim davlatlardagi mavjud faoliyat olib borayotgan tuzumlar quladi, milliy darajadagi manfaatlar davlat darajasida etirof etilib o'z mustaqilligi, hurriyati uchun harakatlarni boshlanishlarida ko'rishimiz mumkin.

Misol, urush oqibatida davlatlar iqdisodiy jihatdan izdan chiqib ketdi. Ammo hayot darajasini ko'tarish uchun urinishlar texnika va texnologiyalarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Yoki urush bo'lgan hududlarda aholini evakuatsiya qilish natijasida urush harakatlari bo'lmayotgan hududlarda bolalarning ko'chirilishi va oilalarga farzandlikka berilishi xalqlar o'rtasida baynanminal faoliyatning kuchayishiga olib keldi. Birgina O'zbekistonda Shomahmudovlar oilasining 16 nafar bolani oilaga olishi xalqlar o'rtasida g'amxo'rlik, bolalarga etibor, mehribonlik, tolerantlik tuyg'ularining o'ziga xos isboti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T. O'zbekiston. 2023 y
2. Robins Nik “Ushbu imperator kompaniya – ingliz Sharqiy Hindiston kompaniyasi va uning korporativ javobgarlik uchun merosi”. doi:10.9774



3. A.Yo‘ldashbekov “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida ijtimoiy inqirozlar”. – T. “Yurudik adabiyotlar”, 2017 y.
4. N.Latipova “Gumanitar inqirozlar” o‘quv qo‘llanma